



Soliq siyosatining iqtisodiy o`lishga ta`siri: zamonaviy yondashuvlar

Kobilova Nafisa Botirovna

Zarmed universiteti, Iqtisodiyot yo`nalishi talabasi

Annotasiya: Mazkur maqola soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq alohiyatining ahamiyatini tadqiq qilish va uning byudjet daromadlarini oshirishdagi rolini asoslashdan iborat. Maqolada byudjet daromadlariga soliq potensialini iqtisodiy chegaralash tahlili va bu bo'yicha xulosa va takliflar berilgan. Soliq alohiyatini baholash byudjet tizimida soliq tushumlarini o'sishini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda soliqlar va soliqqa tortish nazariyasi va uslubiyati, byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari hamda soliq raqobati jarayoni, bundan tashqari, hududning soliq salohiyatini baholash muammolari ochib berilgan. Bundan tashqari mahalliy byudjetlar daromad bazasini hisoblashda soliq potensialidan O'zbekiston sharoitida foydalanish borasida mustaqil izlanishlarimiz natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, byudjet, byudjet daromadlari, soliq, soliqli daromadlar, soliq potentsiali, reprezentativ soliq tizimi, soliqqa tortish, soliq yuki, soliq sig'imi, mahalliy byudjet, soliq ma'murchiligi, hududlar iqtisodiy salohiyati, mahalliy soliqlar.

Mamlakatimizda byudjet-soliq sohasida olib borilayotgan islohotlar zahirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadi mujassamdir. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro'yobiga qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil



18 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyatni takomillashtirish, hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob’ektlarini to‘liq qamrab olishni ta’minlash, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari va soliq to‘lash salohiyatini hisobga olgan holda Davlat byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining xolisligi va asosligini baholash, daromadlar prognozini sifatli shakllantirish borasida yetarlicha muammolar mavjudligi va ushbu jarayonlarni takomillashtirish borasidagi vazifalar belgilab berilgan edi. Darhaqiqat, bugungi kunda davlat byudjeti daromadlarini prognoz qilishda hududlarning soliq salohiyatini hisobga olish masalasiga yetarlicha e’tibor berilmay kelinmoqda, vaholanki, soliqlarni prognoz qilishning asosida soliq potensialni aniqlash yotadi. Soliq potensialini to‘g‘ri aniqlash esa byudjetga soliq tushumlarining kelib tushishini aniqlashda eng muhim baza bo‘lib hisoblanadi. Soliq potensial ham soliqni prognoz qilish kabi murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Soliq potensial iqtisodiy munosabatlar makonida mavjud bo‘lib, moliyaviy resurslarning hajmini, ularning shakllanishi va taqsimlanishi tartiblarini o‘zida aks ettiradi. Soliq potensialni aniqlash prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda u hududlar bo‘yicha byudjetlararo munosabatlarni tartiblashda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, hududning potensialiga qarab subvensiya, ssudalarni taqsimlash mexanizmlarini shakllantirish mumkin². Ta’kidlash kerakki, iqtisodiy sub’ektlarning soliq potensial iqtisodiy resurslarga egaligi bilan o‘lchanadi, davlat esa soliq siyosatini ishga solish orqali ushbu moliyaviy resurslar(potensial)ning qancha qismini byudjetga va boshqa maqsadlarda olishni oydinlashtiradi, ya’ni moliyaviy resurslar(potensial)ning qancha qismi soliq potensialiga aylanishining chegarasini o‘rnatadi. Moliyaviy potensial iqtisodiy resurslarning tarkibi sifatida soliq potensialini o‘z tarkibiga oladi, shu jihatdan moliyaviy resurslar sifatida shakllangan daromad(foйда), aylanma, molmulk, nomoddiy



mulk ob'ektlarining ma'lum qismi yuqorida ta'kidlanganidek, soliq potensialiga aylantiriladi.

Soliqlar davlatning paydo bo'lgan qadimgi davrlardan, ya'ni quldorlik tuzumidan boshlab mavjuddir. Lekin, xususiy mulkchilik tugatilib, davlat mulkchiligi hukmron sho'ro davrida soliqlar o'miga markazlashgan reja- lashtirish mohiyatiga mos keladigan majburiy to'lovlar va ajratmalar joriy etilgan edi. U davrda soliqlarni tamomila qoralangan, ularni qo'shimcha ekspluatatsiya quroli deb atalgan. Shuning uchun ham soliqlarni zarurligining faqat davlatni paydo bo'lishi bilan bog'lash hamisha ham to'g'ri bo'lmaydi. Soliqlarning zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda muayyan vazifalar bajarilishi bilan ekanligidan kelib chiqadi. Davlat o'z funksiyalarini to'liq bajarish uchun albatta moliyaviy manbalarga suyanishi lozim. Buning yagona yo'li soliqlardir. Bozor iqtisodiyoti davrida davlatning an'anaviy funksiyalaridan tashqari, ya'ni ta'lim tarbiya, xalq xo'jaligini boshqarish, mamlakat xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, aholini ijtimoiy himoya qilish ham zarurdir. Ana shu funksiyalarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash uchun soliqlar xizmat qiladi.

Ikkinchi tomondan, soliqlarning zarurligini bozor iqtisodiyotining iqtisodiy qonunlari talablardan kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik shakllari nihoyatda xilma-xil bo'ladi va har bir mulk shakli teng huquqlidir. Mulk egalarining mulki daxlsizdir. Bunday sharoitda davlat o'z xohishicha va istagancha ular mulkini davlat mulkiga ajratma yoki boshqa to'lovlar bilan jalb qilib olmaydi. Bozor iqtisodiyotining mohiyati yuqori erkinlik, demokratiyani ifoda etganligi uchun har xil mulk egalarining mulkidan umumdavlat ehtiyojlari uchun ham foydalanish faqat demokratik yo'l-soliqlar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, bozor iqtisodiyoti qonunlarining mohiyatiga tushungan davlat uning rang-barang strukturasi yaratadi, turli mulk shaklidagi korxona, birlashma, firma, shirkat, ijara, xususiy korxonalarni ko'paytiradi. Bu esa o'z navbatida davlatga soliq to'lovchilarning sonini ko'paytiradi va soliq obyektlari doirasini kengaytiradi. Bu davrda



korxona, birlashma xilma-xil tashkilotlar va aholi keng demokratik huquqlarga ega bo'lganligi uchun ular bilan davlat o'rtasidagi munosabat faqat solikli munosabat bo'ladi. Demak, bozor iqtisodiyoti soliqdami obyektiv zarur qilib quyadi.

Soliqni joriy etish afzalliklari. Yagona soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda soliq solinadigan oborot va tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblab chiqiladi. Yagona soliq bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga yil choragilik va yillik hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddat- larda taqdim etiladi. Yagona soliq budjetga yilning har choragida o'sib boruvchi yakun bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan to'la- nadi. Yagona soliq surmasi mahalliy budjetga o'tkaziladi. To'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga mu vofiq javobgar bo'ladilar. Yagona soliq to'lovchilari bo'ladi, korxonada ishlovchilar soni chek- langan me'yordan oshmagan yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunga hamma sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi har xil mulk shaklidagi korxonalar kiradi. Demak, kichik korxona me'yori faqat ishlovchilar sonigagina qaralib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va daromad olish darajasi e'tiborga olinmagan. Shu yerdan ko'rinib turibdiki, davlat ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar, xizmatlar bajamvchi kichik korxonalarni har tomon- lama rag'batlantirishni muljallaydi. Faoliyat turi xilma-xil bo'ladi ham yagona soliq to'laydilar.

Fuqarolardan undiriladigan daromad solig'i-amalda Jahonning barcha mamlakatlarida ayniqsa keng tarqalgan soliq turi. Bozor iqtisodiyoti sha- roitida bar qanday olinadigan daromad, tekinga olingan narsa va foyda soliqqa tortilishi lozim. Hozirgi vaqtda mazkur soliq aholining deyarli hamma qatlamlarini qamrab oluvchi, eng yahshi ishlab chiqilgan va bar- qaror soliqdir. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning daromadlari «O'z- bekiston Respublikasining Soliq kodeksi»ga muvofiq soliqqa tortiladi. «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi»ga binoan moliya yili davrida O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan 12 oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatga O'zbekistonda yashagan



jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasidagi shuningdek, bundan tashqaridagi faoliyat manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan jismoniy shaxslar- ning daromad solig'i summalarini O'zbekiston Respublikasidagi soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Hisobga olinadigan summalar miqdori jismoniy shaxslar- ning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisob- lab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim. Daromad solig'i fuqarolar barcha toifalarining manfaatlari bilan bog'liq bo'lib, soliqqa tortishning asosiy qoidalarining o'zida ayniqsa to'la ifo- dalanadi. Chunonchi, soliqqa tortish chog'ida ijtimoiy adolatni saqlash maq- sadida amaldagi soliq qonunlarida istisno tariqasida bir qancha imtiyozlar ko'zda to'tilgan. Xususan, ishsizlik nafaqasi (O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hajmlarida), davlat ijtimoiy sug'urtasi davlat ijti moi y ta'minotiga doir nafaqalar, alimentlar oliy o'quv yurtlari, o'rta max- sus va hunar-texnika o'quv yurtlari talabalarining stipendiyalari, hunar- texnika bilim yurtlari stipendiyalari, shuningdek, pensiyaga qo'shimcha to'langan pullar, fuqarolarning xususiy mulkini sotishdan tushgan summalar, tabiiy ofatlar, boshqa favqulodda hodisalar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatlarining qarorlari asosida shunday yordam ko'rsatilganda va boshqa xollarda to'lanadigan pullar daromad solishga tortilmaydi. Bundan tashqari, soliqqa tortiladigan daromad fuqarolarga to'lanishi kerak bo'lgan, lekin ularning arizalariga ko'ra korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan xayriya hamda ekologiya fondlariga, shuningdek, qisman yoki to'la-to'kis budjetdan moliyalashtiruvchi madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy ta'minot korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga o'tkaziladigan summa miqdorida kamaytiriladi.



Mahalliy byudjet daromadlarni prognozlashtirish formulalari soliq salohiyatiga bog‘liq ravishda ishlab chiqilishi va shu asosda oshkoralik hamda bir xil yondashuv bilan prognoz belgilash, transfertlar ajratilishini adolatlilikini ta‘minlab beradi. Respublikamiz byudjeti mablag‘larini tejalishi va samarali foydalanilishini ta‘minlaydi. Hozirgi kunda, soliq salohiyati ko‘rsatkichlari uchun tizimli yondashuv yo‘q, lekin u hudud soliq salohiyati foydalaniladigan barcha ko‘rsatkichlar tizimi mavjud, asosiy element miqdoriy baholashga ega bo‘lgan kategoriya sifatida hudud soliq salohiyati hisoblanadi. Respublikamizda soliqni takomillashtirish va hududning soliq salohiyatini rivojlantirish sohalarini aniqlash, boshqaruvda rejalashtirish funksiyasining timsoli sifatida baholashni nazarda tutadi, chunki hududlarning soliq salohiyatini baholamasdan, uning o‘ziga xos miqdoriy parametrlarini aniqlash, uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash mumkin emas. Umuman olganda, mamlakat soliq salohiyati hududlar soliq salohiyati yig‘indisidan iborat, hududlar soliq salohiyati o‘z navbatida soliq to‘lovchilarning soliq va yig‘imlarni to‘lash salohiyati sifatida izohlanib, yuridik va jismoniy shaxslarning maqomidan kelib chiqib ma‘muriy-hududiy birliklarni solikli daromadlar bilan ta‘minlash darajasi bilan bog‘liq. Soliq salohiyati makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olishi bilan birga soliq to‘lovchining soliqqa tortish tartibi yuzasidan tanlovini ham e‘tiborga qaratishni nazarda tutadi. Bu o‘z navbatida mamlakatda qo‘llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi va soliq ma‘murchiligi natijadorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi Hududlar soliq salohiyatini baholash hududlar soliq salohiyatining o‘lchanadigan ko‘rsatkichlari tizimi, uni belgilovchi omillar va miqdoriy xususiyatga ega bo‘lgan omillar hududlarining soliq salohiyatiga ta‘sirini baholash usullari orqali taqdim etiladi. Hududlar soliq salohiyatini baholash usullari funksional-uslubiy asosda tasniflanib, nafaqat haqiqiy baholash usuli bilan, balki maqsadlar va prognoz ufqlari bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga, baholash usullarining kamchiliklarini bartaraf etishning taklif etilgan vositalarini hisobga olgan holda, qisqa muddatda hududlar soliq salohiyatini tizimsiz baholash uchun ekstrapolyatsiya usullarini



tavsiya etish mumkin, uzoq muddatli tizimni prognoz qilish uchun modellashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mahalliy byudjet mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ularning daromadlarining muhim qismi soliq tushumlaridan xisoblanadi. Soliq salohiyatini baholashda ko'plab yondashuvlar mavjud. Yondashuvlarning har biri ma'lum ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi: aholining jon boshiga o'rtacha daromadlari, soliq stavkalari, soliq bazasi, yalpi hududiy mahsulot va boshqalar. Soliq salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olishi bilan bir qatorda soliq to'lovchining soliqqa tortish tartibi yuzasidan tanlovini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Bu o'z navbatida mamlakatda qo'llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi va soliq ma'murchiligi natijadorligi ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Alohida soliqlar va yig'imlar sharoitida hududning soliq salohiyatini baholash juda murakkab va vaqt talab qiladigan jarayondir, shuning uchun eng muhim soliqlarning soliq salohiyatini baholash va ularning rivojlanish tendensiyalarini bazis davriga nisbatan qolgan (oldindan aytib bo'lmaydigan) soliq to'lovlariga ekstrapolyatsiya qilish nazarda tutiladi. Prognozlash uchun bir xil ma'lumotlardan foydalanilganda, korrelyatsion va regression tahlil doirasida uch omil modeli hudud soliq salohiyatining eng aniq bahosini berdi, barcha modellashtirish usullari ham o'rta muddatli prognozlashni uch yillik ufq bilan amalga oshirishda yuqori aniqlikka ega.

Hududning soliq salohiyati, bir tomondan, "Hududning iqtisodiy tuzilishi bilan belgilanadi va uning soliq ob'ektlari yoki asoslari sifatida tan olingan soliq resurslari bilan ta'minlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, aynan soliq salohiyati soliq tushumlarining moddiy asosini tashkil etadi va bu turli darajadagi byudjetlarning, shu jumladan hududiy daromadlar qismini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi

Soliq salohiyatini ikki tomonlama baholashda e'tiborga olinishi kerak, bu hududning turli ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy-amaliy muammolarini hal qilishda puxta yondashuvlarni



ishlab chiqish uchun muhimdir. Soliq salohiyatini baholashning to'g'riligi va asosliligi asosan ishlatilgan asosiy ko'rsatkichlarga, usullar va uslubiy yondashuvlarga bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bank-moliya akademiyasi magistranti G'oyimov Xusayn Bahodir o'g'li(2024)
HUDUDLARDA SOLIQ SALOHIYATINI SAMARALI BOSHQARISH
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
3. A. Yo'ldoshev. Soliq va soliqqa tortish. «Fan va texnologiya». 2007,
4. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009.
5. . Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. -247 b.
6. Mahmudov N., Adizov S. Soliqlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash: nazariya, amaliyot va modellashtirish. Monografiya. –T.: “Fan”, 2014. -106 b.